

# SARIQ VA PSORIAZ KASALLIGIDA FOTOLAMPANING FIZIOTERAPEVTIK AHAMIYATI

*Safarov Ulug'bek Qarshibayevich, Murtazoyeva Gulsara*

*Toshkent tibbiyot akademiyasi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ko‘pincha chaqaloqlarda uchraydigan sariq kasalligi, uni davolash turlari, psoriaz kasalligi, fotolampaning ahamiyati haqida bat afsil ma’lumot berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Sariq kasalligi, fotolampa, bilirubin, jigar, kosmetologiya, to‘lqin uzunligi, psoriaz kasalligi.

Asosiy qism: Sariq kasalligi-jigarda hosil bo‘ladigan bilirubin-o‘t pigmentining to‘qimalarda to‘planishi tufayli teri, ko‘z oqi va shilliq pardalarining sariq tusga kirishi. Sariq kasalligi qonda bilirubin miqdorining oshib ketishi natijasida paydo bo‘ladi. Sariq kasalligining belgilari chaqaloq hayotining 2-3- kunida 70% da uchraydi. Agar bilirubin darajasi juda yuqori bo‘lsa, tegishli choralar ko‘riladi. Misol uchun, fototerapiya chirog‘idan foydalaniladi. Emizish ham fiziologik sariqlikning oldinini olishning yaxshi usuli hisoblanadi. Kuzatuvlar shuni ko‘rsatadiki, fototerapiya lampasi tomonidan chiqariladigan kunduzgi yorug‘lik ta’siri natijasida bolaning terisining sariqligi kamayadi. Yorug‘lik bilan ishlov berish tartibi turli xil spektral nurlanish kuchiga ega bo‘lgan maxsus lampalar yordamida amalga oshiriladi. Bunday lampalarning yorug‘ligi oq, ko‘k, yoki ko‘k-oq bo‘lishi mumkin. Eng yaxshi natijalar ko‘k rangli fototerapiya chiroq bilan olinadi. Fototerapiya bilan davolanayotgan payti monitoring labaratoriya o‘tkazilib kamida 2 marta, zarur bo‘lsa 3 marta ham kun davomida o‘tkaziladi. Bilirubin miqdorining pasayishi dastlabki 24 soat ichida kuzatiladi. Fototerapiyadan qanday foydalaniladi? Fototerapiya maxsus inkubator yoki isitish funksiyasi bo‘lgan beshikka joylashtiriladi. Bunday holatlarda kichik bemorlarimiz jinsiy a’azolar va ko‘zlarini yopadilar. Ko‘zlarini yopish uchun maxsus ko‘zoynaklar beriladi va bolaning tanasi haddan tashqari qizib ketmasligi uchun kuzatib turiladi. Ikki qo‘sishimcha yon chiroqlardan foydalanish davolanish samaradorligini oshiradi.

**Psoriaz-** Psoriaz, tangachali lishay (Psoriasis – lot. psora – qichishish) — surunkali noinfektsion kasallik, asosan terini shikastlaydigan dermatoz. Hozirgi paytda kasallikning autoimmun tabiatli ekanligi ilgari surilmoqda. Odatda psoriaz qizil, o‘ta quruq, teridan biroz ko‘tarilib turadigan dog‘lar shakllanishi bilan namoyon bo‘ladi, bunday dog‘lar papula deb ataladi va ular o‘zaro birlashib, blyashkalar hosil qiladi.

## EPIDEMIOLOGIYASI

Kasallik jinsga bog‘liq emas. Psoriazdan umumiyligi aholi sonining 2-4 foizi aziyat chekadi. Kasallik har qanday yoshda bosylanishi mumkin, lekin ko‘pincha blyashkalar 15-25 yosh oralig‘ida paydo bo‘ladi. Har uchinchi kasal o‘zida psoriaz alomatlarini 20 yoshga yetmay aniqlaydi.

O‘zbekiston “sariq kasal” ko‘p tarqalgan mamlakatlar qatoriga kiradi. Shular qatorida psoriaz kassaligi ham. Yuqorida aytganimizdek fotolampa orqali fototerapiya muolajasi bizga yoradam bera oladi. Men bu sariq va psorioz kasalligiga yordam bera oladigan fotolampani kosmetologiya sohasi bilan birlashtirdim. Loyihaga ko‘ra to‘lqin uzunligini o‘zgartirgan holda fotolampani bir nechta sohada qo‘llay olamiz. Masalan: to‘lqin uzunligi 250-300 nm bo‘lsa sariq kasalligida

qo‘llaniladi.To‘lqin uzunligini o‘zgartirib boshqa sohalarda ham qo‘llaymiz. Lekin kosmetologiya sohasida to‘lqin uzunligi 300 nm ni tashkil etadi va orasidagi masofa 10-15 sm bo‘ladi. Fototerapiya akne bilan kurashish, qon aylanishini va limfa oqimini rag‘batlantirish uchun ishlataladi. Davolash protsedurasi yuzdagи poralarni (teshiklarni) toraytiradi. Yengil terapiya seansi tana uchun xavfsizdir, biroq bir nechta cheklovlar mavjud. --Onkologik shakllanishlar;

- Buyrak usti bezlari bilan bog‘liq muammolar;
- Homiladorlik va laktatsiya davri.
- 18 yoshgacha bo‘lgan bemorlar uchun protsedura o‘tkazilmaydi.

Bundan tashqari binafsha va ko‘k chiroq –antibakterial va bakteritsid xususiyatiga ega, yallig‘lanishni yumshatadi. Sariq yorug‘lik-nafaqat epidermis darajasida,balki dermis ichida ham chuqurroq ishlaydi.Terida kollagen sintezini oshiradi.Kapillyarlarning devorlarini mustahkamlaydi.Qizil va infraqizil nur-eng chuqur ishlaydi.Bu qon tomirlarning kengayishiga olib keladi va oziq moddalar almashinuvini osonlashtiradi.Soch to‘kilishini oldinini olish uchun terapiyada qo‘llaniladi.

Xulosa qilib aytganda fotolampani fizioterapiyada,kosmetologiyada va xonani dizenfeksiya qilishda, ya’ni antibakterial sifatida qo‘llashimiz mumkin.Sifat madaniyati, tavakkalchilikka asoslangan dizayn doimiy axloqiy nazoratni ta’minlaydi .Ushbu yondashuv bemorlarning xavfsizligini birinchi o‘ringa qo‘yadi, ishonchni mustahkamlaydi shu jumladan yirik til modellariga asoslangan texnologiyalarni joriy etishga yordam beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.Wikipedia
- 2.<https://aliexpress.ru/item/1005005782515320.html>
- 3.Umumiylar tibbiy radiobiologiya M.I.Bazarbayev va boshqalar. Darslik, 2019.